JOHN STEINBECK ASARLARIDA ANTROPOSENTRIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK VA TARJIMAVIY TAHLILI

Ro`ziyeva Umida Abruyqul qizi
SamDChTI mustaqil izlanuvchisi
umidaroziyeva0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada John Steinbeck asarlarida uchraydigan antroposentrik frazeologik birliklarning lingvistik va tarjimaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Of Mice and Men hamda The Grapes of Wrath asarlaridan olingan frazeologik birliklar asosida ularning semantik, pragmatik va stilistik vazifalari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari Steinbeck uslubida frazeologizmlar insonning hissiy holati, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muammolarini ifodalashda muhim stilistik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: antroposentrizm, frazeologik birliklar, badiiy tarjima, semantik tahlil, pragmatik xususiyat, kontekstual moslashtirish, ekvivalent tarjima, John Steinbeck, Of Mice and Men, The Grapes of Wrath, phraseological meaning

Kirish

Amerikalik yozuvchi John Steinbeck asarlari xalqona til, obrazlilik va chuqur psixologizm bilan ajralib turadi. Yozuvchi o‘z qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiy holati va ijtimoiy muammolarini yoritishda turli frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalanadi. Ayniqsa, insonning hissiy holati, xarakter xususiyatlari hamda hayotiy munosabatlarini ifodalovchi antroposentrik frazeologik birliklar Steinbeck uslubining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida semantik ma’no, pragmatik xususiyat va milliy-madaniy koloritni saqlab qolish tarjimon oldidagi asosiy muammolardan biri sanaladi.

Tilshunoslikda antroposentrik yondashuv tilni inson tafakkuri, ruhiyati va faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi.[51] Ushbu yondashuvga ko‘ra, til birliklari insonning dunyoni idrok etishi va baholash jarayonini aks ettiradi. Shu sababli frazeologik birliklar ham inson omili bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan lingvistik vositalardan biri sifatida talqin qilinadi.

Badiiy tarjimada asarning badiiy-estetik ta’sirini saqlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir.[52] Tarjimashunoslikda frazeologik birliklarni tarjima qilishda turli tarjima usullaridan foydalaniladi. Jumladan, ekvivalent tarjima usuli orqali manba tilidagi frazeologizmga ma’no va uslub jihatdan mos keluvchi birlik tanlanadi. Agar tarjima tilida to‘liq ekvivalent mavjud bo‘lmasa, kontekstual moslashtirish usuli qo‘llanilib, iboraning mazmuni kontekst asosida moslashtiriladi. Ayrim hollarda esa tasviriy yoki izohlovchi tarjima usuli orqali frazeologik birlikning semantik mazmuni ochib beriladi. Bu usullar badiiy matndagi milliy kolorit, emotsional-ekspressivlik va muallif uslubini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Original ibora	**So‘zma-so‘z ma’nosi**	**O‘zbekcha tarjima**	**Tarjima turi**	**Tahlil**
“scared to death”	o‘lim darajasida qo‘rqmoq	“O‘lib qoladiganday qo‘rqmoq”	kontekstual moslashtirish	Qo‘rquvning yuqori darajasi hiperbola orqali ifodalangan. Tarjimada

[51] Maslova V.A. Linguoculturology. – Moscow, 2001. – P. 7
[52] Комиссаров В.Н. *Теория перевода (лингвистические аспекты)*. – Москва, 1990. – Б. 45.

				emotsional-ekspressivlik saqlangan.
“blow their stake”	pulini uchirib yubormoq	“Pulini sovurib yubormoq”	tasviriy tarjima	Amerika og‘zaki nutqiga xos birlik bo‘lib, moddiy mas’uliyatsizlikni bildiradi. Tarjimada asosiy ma’no izohlab berilgan.
“mad as hell”	jahannamdek jahlli	“Jahli osmonga chiqmoq”	kontekstual moslashtirish	Kuchli g‘azab holati ifodalangan. O‘zbek tilidagi milliy ekvivalent tanlangan.
“heart was heavy”	yuragi og‘ir edi	“Ko‘ngli g‘ash edi”	kontekstual moslashtirish	Ichki qayg‘u va tushkunlik ifodalangan. Tarjimada milliy ruhiyatga mos variant qo‘llangan.
“raise hell”	jahannam ko‘tarmoq	“Janjal ko‘tarmoq”	ekvivalent tarjima	Keskin norozilik va agressivlikni bildiradi. Pragmatik ta’sir saqlangan.
“sick at heart”	yuragidan kasal	“Ich-ichidan iztirob chekmoq”	tasviriy tarjima	Chuqur ruhiy og‘riq ifodalangan. Tarjimada ma’no izohlovchi usul orqali berilgan.
“fight tooth and nail”	tish va tirnoq bilan kurashmoq	“Jon-jahdi bilan kurashmoq	kontekstual moslashtirish	Insonning yashash uchun qattiq kurashi ifodalangan. Milliy obrazlilik orqali tarjima qilingan.
“full of beans”	loviyaga to‘la	“G‘ayratga to‘la”	ekvivalent tarjima	Serharakatlik va energiya ifodalangan. Tarjimada frazeologik ma’no to‘liq qayta yaratilgan.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, John Steinbeck asarlaridagi frazeologik birliklar asosan inson hissiyoti, ruhiy holati va ijtimoiy hayotini tasvirlashga xizmat qiladi. Ayniqsa qo‘rquv, g‘azab, umidsizlik, yolg‘izlik va qashshoqlik kabi emotsional holatlar frazeologik birliklar orqali yanada ta’sirchan ifodalangan. Tarjima jarayonida ekvivalent tarjima, kontekstual moslashtirish hamda tasviriy tarjima kabi usullar keng qo‘llangan.

Bundan tashqari, Amerika qishloq hayoti va xalqona nutqiga xos ayrim iboralarni o‘zbek tiliga aynan tarjima qilish qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli tarjimon ba’zan milliy ekvivalent tanlaydi, ayrim hollarda esa ma’noni izohlash orqali beradi. Natijada ayrim frazeologik birliklarning milliy koloritida qisman yo‘qotish kuzatilsa-da, ularning semantik va pragmatik mazmuni asosan saqlab qolingan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda John Steinbeck asarlarida uchraydigan antroposentrik frazeologik birliklarning lingvistik va tarjimaviy xususiyatlarini o‘rganishda bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida Of Mice and Men hamda The Grapes of Wrath asarlaridan olingan frazeologik birliklar tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, descriptive method yordamida asarlardagi antroposentrik frazeologik birliklar aniqlanib, ularning semantik va stilistik xususiyatlari tavsiflandi. Shuningdek, comparative analysis metodi asosida ingliz tilidagi original frazeologik birliklar va ularning o‘zbekcha tarjima variantlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Bu usul orqali birliklarning ma’no, emotsional-ekspressivlik hamda pragmatik ta’sir darajasi o‘rganildi.

Bundan tashqari, contextual analysis metodi yordamida frazeologik birliklarning badiiy matndagi funksiyasi, qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni hamda muallif uslubini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Frazeologizmlar tilning emotsional-ekspressiv qatlamini tashkil etadi.[53] Tarjima jarayonida qo‘llanilgan ekvivalent tarjima, kontekstual moslashtirish va tasviriy tarjima kabi translation transformation usullari aniqlanib, ularning samaradorligi baholandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, John Steinbeck asarlarida qo‘llangan antroposentrik frazeologik birliklar qahramonlarning ruhiy holati, hissiy kechinmalari, xarakteri hamda ijtimoiy muammolarini yoritishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa Of Mice and Men va The Grapes of Wrath asarlarida uchraydigan frazeologik birliklar xalqona nutq, emotsional-ekspressivlik va milliy koloritni aks ettirishi bilan ajralib turadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ekvivalent tarjima, kontekstual moslashtirish hamda tasviriy tarjima kabi tarjima transformatsiyalari keng qo‘llaniladi. Ayrim hollarda ingliz tilidagi frazeologizmlarga o‘zbek tilida to‘liq ekvivalent topilsa, ba’zi birliklar kontekst asosida moslashtirilib yoki izohlovchi usul yordamida tarjima qilinadi. Bu esa tarjimonning nafaqat lingvistik bilimini, balki milliy-madaniy tafakkur va badiiy uslubni his qilish mahoratini ham talab qiladi.

Umuman olganda, John Steinbeck asarlaridagi antroposentrik frazeologik birliklarni o‘rganish badiiy tarjimada inson omili, milliy-madaniy tafakkur va phraseological meaning masalalarini chuqurroq tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. John Steinbeck. Of Mice and Men. – New York: Penguin Books, 2000.
2. John Steinbeck. The Grapes of Wrath. – New York: Penguin Classics, 2006.
3. Komissarov V.N. *Tarjima nazariyasi (lingvistik aspektlar)*. – Moskva, 1990
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1992.
5. Ruziyeva, U. “Human Experience Through Anthropocentric Phraseology in John Steinbeck’s Works.” – “Filologiya va pedagogika” Ilmiy-metodik elektron Jurnali 2026-yil 1 (20)-son.
6. Ruziyeva, U. “Contextual Analysis of Anthropocentric Phraseological Units in The Grapes of Wrath.” Conference Proceedings: Innovations in Language Teaching and Learning. – 2025.
7. Maslova, V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva, 2001.
8. A. V. Kunin. A Course of Phraseology of Modern English. – 2nd edition. – Moscow: Vysshaya Shkola, 1996

[53] Раҳматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг фразеологик луғати*. – Тошкент, 1992. – Б. 11.